

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da  
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy  
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy  
markazi**

**“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da  
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy  
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish**

**Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi  
materiallari**

**(2023-yil,6-dekabr)**

**Tezislar va maqolalar to‘plami**

**Buxoro-2023**

To'plamda "Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"da ta'lim sifatini yanada oshirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan tezis va maqolalar kiritilgan.Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda ta'lim va tarbiyaning roli, yuksak ma'naviy xazina hisoblangan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish hamda "O'zbekiston-2030"strategiyasida ilgari surilgan,erkin,farovon va qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish haqidagi fikrlar bayon etilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

Yuksak bilimli,intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash,ular ongi va qalbiga vatanga muhabbat,yurt taqdiriga dahldorlik his-uyg'ularini singdirish,yosh avlodni Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"dagi tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish masalalari tahliliga bag'ishlangan ushbu to'plam soha mutaxassislari,professor-o'qituvchilar,umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari,tadqiqotchi-izlanuvchilar ,magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallarini tayyorlash bo'yicha mas'ullar:**

**Tahrir hay'ati raisi:** A.K.Safarov, Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori.

**Mas'ul muharrir:** Yu.H.Haydarov, "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri ,tarix fanlari nomzodi,dotsent.

**Tahrir hay'ati:**

**Sh.R.Astanov** –"O'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

**B.Ya.Armedov** -"Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,filologiya fanlari nomzodi,dotsent.

**R.V.Astanov**- "Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri.

**U.A.Qosimov**- "Pedagogika,psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri,psixologiya fanlari nomzodi,dotsent

**M.S.Narzieva**- "Maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" mudiri

**M.Q.Oripova**- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

**M.I.Abdullayeva**- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** Yu.Sh.Shukrullayev- tarix fanlari nomzodi,dotsent.

B.I.Mustafoev-pedagogika fanlari nomzodi,dotsent.

To'plam BVPYaMO'MM ilmiy-metodik kengashi tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan. (2023-yil 4-dekabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishi bayonnomasi.)

**Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish-Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda,desak,ayni haqiqat bo‘ladi.Chunki bugungi O‘zbekiston-kechagi O‘zbekiston emas.Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.**

**Shavkat Mirziyoyev,O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi I-II qism. T.: Fan, – 2019 – 510 b
2. Sharofuddin Ali yazdi. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997.—384 b
3. Amir Temur. Temur tuzuklar. T.: Yangi nashr, 2018. – 128 b
4. [www.zivo.uz](http://www.zivo.uz)

### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BUNYOD ETGAN ZIYORATGOH TARIXI

Sh.B.Jumayeva,

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti “O‘zbekiston tarixi”

kafedrasi mudiri, t.f.f.d.(PhD)

**Annatotsiya.** Muallif Zahiriddin Muhammad Boburning nomi bilan holda talqin etilgan Toshkent viloyatidagi o‘rta asrlarga oid noyob tarixiy yodgorlik Qizil Mozor ziyoratgohi to‘g‘risida ma’lumot bergan.

**Kalit so‘zlar:** Bobur, maqbara, muhabbat, Qizil mozor, yodgorlik, arxitetura, afsona, gumbaz.

**Аннатоция.** Автор привел информацию о святилище Кызыл Мазар, уникальном средневековом историческом памятнике в Ташкентской области, построенном Захириддином Мухаммедом Бабуром.

**Ключевые слова:** Бабур, мавзолей, любовь, Красная могила, памятник, архитектура, легенда, куполо.

**Annotation.** The author provided information about the Kyzyl Mazar mausoleum, a unique medieval historical monument in the Tashkent region, built by Zahiriddin Muhammad Babur.

**Key words:** Babur, mausoleum, love, Red Grave, monument, architecture, legend, dome.

O‘zbekiston nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblanadi. Jumladan, yurtimizdagi uch mingdan ortiq moddiy-ma’naviy yodgorliklarning umumjahon merosining noyob namunalari sifatida YUNESKO

ro'yxatiga kiritilganligi fikrimiz dalilidir. Mustaqillik sharofati ila milliy o'zligimizni anglash, ko'hna tariximizni tiklash va o'rganish imkoniyatiga sazovor bo'ldik. Ayniqsa, muqaddas dinimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Buyuk ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Imom Motrudiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband kabi avliyolarimizning nomlari tiklanib, ularning ma'naviy merosi o'rganilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Mustaqillik yillarida buyuk bobolarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari, ziyoratgohlar jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong, o'zlikni anglash va milliy g'ururni ko'tarishga, hamda xalqimiz ayniqsa, yoshlar ongida mustaqillik mafkurasini shakllantirishga xizmat qilmokda.

Jumladan, buyuk bobokalonlarimizdan biri bo'lgan Bobur o'z davrining komil insonlaridan biri bo'lgan desak aslo adashmaymiz. Birgina Boburning o'z bobosi Amir Temurning vorisi sifatida markazlashgan davlatni saqlab qolish borasida olib borgan jangu-jadallari, sa'yi harakatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan sohasidagi faoliyati, siyosiy yetakchilik qobiliyati, davlat arbobi va she'riyat sohasining sultoni sifatida ko'plab asarlar bitilgan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Umuman olganda, bugungi kunga qadar Bobur faoliyati turli soha vakillari – tarixchilar, manbashunoslar, adabiyotshunoslar, siyosatshunoslar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ko'plab asarlar va maqolalar bitilgan.

Shayboniyxon tayziqi ostida o'z yurtini tark etgan Bobur bir umr yurt sog'inchi bilan yashadi. U asos solgan sulola 300 yildan ortiq hukmronlik qilib, Hindiston tarixida Boburiylar imperiyasi sifatida nom qoldirdi. Shunga qaramasdan, Boburni yurtimiz bilan bog'lab turuvchi o'ziga xos tarix mavjud. Jumladan, Toshkent viloyati Bekobod tumani Taqachi qishlog'ida joylashgan Qizilmozor ziyoratgohining bunyod etilish tarixi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan talqin etiladi. Toshkent viloyatida bugungi kunga qadar saqlanib qolgan me'moriy-tarixiy maqbaralar: Zangiota (Zangiota t.), Qizilmozor (Bekobod t.), Boboxonota (O'rtachirchiq t.) va Qorixona (Ohangaron t.) hisoblanadi. Qizil

mozor ziyoratgohi XVI-XVII asrlarga oid tarixiy yodgorlik bo'lib, maqbara me'moriy yechimiga ko'ra, peshtoqli-qubbali maqbara-xonaqo shaklida bunyod etilgan. Unda to'rt burchak shaklidagi bino bo'lib, uning kattaligi 13,1x11,3 metr, balandligi gumbazi bilan birga 10,5 metrga teng [1.292]. Maqbara Chotqol-Qurama arxeologik otryadi tomonidan 1963 yilda o'rganilgan. Maqbara loy qorishma asosida pishiq g'ishtdan barpo etilgan. Peshtoqning ravoqi va bir qatlamli sferogonik shakldagi gumbazi ganch qorishma bilan qurilgan. Bino tarzida g'isht asl holida qoldirilgan. Maqbaraning ichlari suvoq qilingan bo'lib, bir nechta sag'ana joylashtirilgan. Maqbarada 1963 yil ta'mirlash ishlari olib borilgan. Xalqona qarashlarga ko'ra, yodgorlik Zahiriddin Muhammad Bobur farmoni bilan bunyod etilgan. Yodgorlik kitoba, ark, koshinlarining tuzilishi, gumbaz hamda nimganj aralash qurilgan devorlar yodgorlikning Bobur zamonasiga tegishli ekanligidan dalolat beradi [2].

Rivoyatga ko'ra, Taqachi qishlog'i atrofida yuz bergan jangda Boburning eng chaqqon, qo'rqmas va sodiq jangchilaridan biri og'ir yarador bo'ladi. Yaralangan jangchi yiqilgach bosh kiyimi yumalab, ostida yashirilgan qirq kokil yoyilib ketadi. Boburga oshiq bo'lgan qiz og'ir damlarda uning yonida bo'lish, uning uchun jang qilishni o'ziga baxt deb bilgan edi. Shu sabab askar qiyofasida Bobur yonida bo'lishni o'ziga taqdir deb bildi va muhabbati yo'lida qurbon bo'ldi. Qo'lida jon bergan jangchi qiz va uning ko'zlarida qolgan abadiy muhabbat Boburni larzaga soldi. Bobur qizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida bir kechada betakror maqbara bunyod etishga farmon berdi. Jangchilar mard va go'zal jangchi qizga bag'ishlab gumbazli maqbarani bunyod etishdi. Ertalabki quyosh yog'dusi ostida maqbara o'ziga xos nur taratar edi. Shu sabab, maqbara "Qizil mozor" deb nom olgan va bugungi kunga qadar "Abadiy muhabbat" uchun qo'yilgan yodgorlik sifatida talqin etiladi. Yana bir afsonaga ko'ra, mazkur maqbara Bobur tomonidan sodiq lashkarboshilaridan biriga atab bunyod etilgan [3.2.49].

Umuman olganda, mazkur maqbaraning bunyod etilishi bilan bog'liq tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Ammo, tarixdan ma'lumki, Bobur

Toshkent vohasiga bir necha bor tashrif buyurgani to'g'risida "Boburnoma" asarida ham ma'lumotlar qayd etilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Пугаченкова Г., Ремпель Л. Выдающие памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, 1958. 292 с.

<https://shoshziyorat.uz/uz/>

Эшмирзаева З. Дарогами Шаша и Илака. Сакральные места Ташкентской области. –Т.2019. 249 с.

### BURHONIDDIN MARG'INONIY DINIY-FALSAFIY QARASHLARIDA TA'LIM MASALALARI

Ergasheva Hayotxon Samandarovna,

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** maqolada Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida ta'lim-tarbiya, inson ma'naviy kamolotida ilm olishning xosiyatiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, odob, ma'naviyat, barqarorlik, erkinlik, adolat, insonparvarlik.

**Аннотация:** статья содержит научно-теоретические предложения и рекомендации, касающиеся особенностей воспитания и обучения в духовной зрелости человека в трудах Бурхониддина Маргинани.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, нравы, духовность, устойчивость, свобода, справедливость, человечность.

**Annotation:** the article contains scientific and theoretical suggestions and recommendations regarding the characteristics of education and learning in the spiritual maturity of a person in the works of Burhoniddin Marginani.

**Key words:** education, upbringing, manners, spirituality, stability, freedom, justice, humanity.

Bugungi kunda jamiyat barqaror taraqqiyoti bevosita yoshlarning zamonaviy

	Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi <b>AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTINING ASOSIY SABABLARI VA UNING BUGUNGI KUN ILM-FANIDA TUTGAN O‘RNI</b>	
77	<b>Sh.B.Jumayeva</b> CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası mudiri, t.f.f.d.(PhD) <b>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BUNYOD ETGAN ZIYORATGOH TARIXI</b>	375
78	<b>Hayotxon Samandarovna Ergasheva</b> Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi <b>BURHONIDDIN MARG‘INONIY DINIY-FALSAFIY QARASHLARIDA TA’LIM MASALALARI</b>	378
79	<b>G .Qamariddinova</b> Bux. MTI Ijtimoiy fanlar kafedrası <b>BUXORO VOHASIDA ISLOMDAN OLDINGI MAHALLIY DINLAR</b>	382
80	<b>Nizomova Shoxista Shodiyevna</b> Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti <b>BUYUK AJDODLARIMIZNING JASORATI VA FIDOIYLIGI – AVLODLAR UCHUN IBRAT</b>	386
81	<b>Mirzaeva Nigora</b> ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi <b>BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI – BEBAHO XAZINA</b>	390
82	<b>Eshquvvatova Mahfuza</b> Chirchiq davlat pedagogika univertseti Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi <b>Ilmiy rahbar: Shoira Berdiyarovna Jumayeva</b> CHDPU O‘zbekiston tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d.(PhD), dots.	394